

**ALEKSANDR FAYNBERG SHE'RLARI TARJIMALARIDA
SHAKL VA MAZMUN MUTANOSIBLIGI**

Mehruza G'aniyeva

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Tarjimonlik fakulteti magistratura 2-bosqich talabasi
E-mail: mekhruzaganieva@gmail.com*

Aleksandr Faynberg ijodining O'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rni bor. Shoir, she'rlarida xalqning tarixi, madaniyati, go'zal an'analari, mehru vafo, do'stga sadoqat o'ziga xos tarannum etilgan. Faynberg she'rlarini ingliz tiliga tarjima qilish nafaqat tilning o'ziga xosligi, balki asarning shakl va mazmun mutanosibligini saqlash kabi murakkab ijodiy jarayonni anglatadi. Ushbu maqolada Faynberg she'rlarining tarjima jarayonida duch keladigan asosiy muammolar va ularning yechimlari xususida so'z boradi.

Aleksandr Faynberg she'rlarida o'ziga xos ritm, ohang va qofiya tizimi mavjud. She'rlarning mazmunini tarjima qilish bilan birga, ularning shakliy jihatlarini ham saqlab qolish zarur. Masalan, shoir she'rlaridagi ohang va ritm, o'zbek tiliga xos tovushlar va talaffuz orqali hosil bo'ladi. Bu xususiyatlar ingliz tilida takrorlanishi juda murakkabdir, chunki har ikki tilning fonetik tizimlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. She'rlarning mazmunini tarjima qilish jarayoni ham muhim ahamiyatga ega. Faynberg asarlarida xalqning ma'nnaviyati, urf-odatlari va tarixiy hodisalar aniq tasvirlangan. Bu ma'lumotlar tarjimon tomonidan to'liq tushunilishi va to'g'ri yetkazilishi kerak bo'ladi. Mazmunni saqlash uchun tarjimon asarning asl matnnini chuqur o'rganishi, muallifning niyatini va asarning kontekstini to'g'ri anglash zarur. She'riy asar tarjimasi jarayonida ohangini saqlash uchun tarjimon ko'pincha yangi qofiya tizimlarini yaratishi kerak, bu esa ba'zan mazmunning o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan, Faynberg she'rlarida o'zbek madaniyatiga xos o'xshatish va metaforalar ko'p uchraydi, bu obrazlarni ingliz tiliga tarjima qilishda ularning mazmunini yo'qotmaslik uchun juda ehtiyyotkorlik bilan ishlash lozim. Bu muammolarni yechishda bir nechta yechimlar mavjud:

1. Adaptatsiya Metodi: She'rlarni tarjima qilishda adaptatsiya metodidan foydalanish mumkin. Bu metod yordamida tarjimon asl matnning mazmunini saqlab qolib, uni yangi tilning madaniy va til xususiyatlariga moslashtiradi. Bu usul she'rning asosiy mazmunini o'zgartirmasdan, uning shaklini yangi tilga moslashtirish imkonini beradi.

2. Tarjimada Hamkorlik: Tarjima jarayonida shoir va tarjimon o'rtasidagi hamkorlik ham muhim rol o'ynaydi. Tarjimon she'rni tarjima qilishdan oldin, agar muallif hayot bo'lsa, u bilan maslahatlashib, uning niyatini va asarning asosiy

mazmunini to'liq anglab olishi maqsadga muvofiq. Bu she'rning shakl va mazmunini saqlab qolish imkoniyatini oshiradi.

3. Tarjimonning tili boyligi: Tarjimonning til boyligi ham muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilining boy va xilma-xil leksikasidan foydalanish orqali tarjimon she'rning shakliy va mazmuniy xususiyatlarini saqlab qolishi mumkin. Tarjimon o'zbek tilidagi ifodalarni ingliz tilida muqobil ifodalar orqali yetkazishida bu muhim ahamiyat kasb etadi..

Aleksandr Faynbergning quyidagi she'rini o'zbek tiliga tarjima qilishda, original matnning mazmuni va hissiyotlarini to'liq aks ettirishga harakat qilish muhim. She'rda aks ettirilgan sog'inch va o'ziga xos tasvirlar o'zbek tilida ham hissiyotli va ta'sirli bo'lishi kerak. Ushbu she'r tarjimasida buning yaqqol namunasini ko'ramiz:

Ташкент

Кого благодарить за радость и за боль,
что жив ещё во мне тот дворик голубой?..
Подъезды без дверей. В сирени все заборы.
Я маме говорю: – Я дома буду скоро.
Сорвётся ветерок с крыла летучей мыши.
Чердачное окно. Через него – на крышу.
Чуть слышно прозвенит нагретое железо.
Не бездна надо мной, а словно я над бездной.
На свете ночи нет. Лишь сумерки наплыли.
И звёзды надо мной – на светлом голубые.
С балкона слышу я: – Домой... Девятый час...
– Сейчас, – я маме лгу. Я маме лгу: – Сейчас...
...До гробовой доски с той крыши не уйти.

Toshkent

Quvonch, qayg'u uchun, kimga shukr etay?
Qalbdagi uyimdan qaylarga ketay?

Nastarinlar to'la devorlar, uylar,
Darvozasiz hovli, azizzdir ular.

Onam chaqirganda xa, hozir, derdim,
Lek, ko'proq qushlarning g'amini yerdim.

Tomning tunukasi qizib ketardi,
Qo'lim go'yo undan ko'kka yetardi.

Falakka qo'nganda astagina shom,
Yulduzlar yogdusi berganda orom,

Onam chaqirardi yana balkondan,
Kelyapman, onajon, derdim yolg'ondan.

Bog'lanib qolgandim tomimga yomon,
Qirqda ham onamchun bolaydim hamon.

Abadiy bahorday barcha xushchaqchaq,
Hokisorim onam kutardi ilhaq.

O'zbek tiliga Begoyim Xolbekova tarjimasi

Quyida shu she'rning ingliz tiliga tarjimasini ham ko'rib chiqsak:

Tashkent

Who can I thank for my pain and joy, and for
Evoking sweet memories and – that patio?

The entrance - no door; just lilacs full of fences.
My mummy calls home; ‘ok’ say I senseless.

The bat dashes off and blows out the wind;
Through that tiny dormer. Am I out or in?

I hear the sound of tinkling – it’s a tin.
I feel so hollow. Or does it drag me in?

It’s a twilight my friend. The darkness is rare.
It’s twinkling of Stars, Yet. heaven’s so fair.

My mother repeats: It’s nine, it’s time to go home!
‘Coming my mummy’, I lie and continue to roam.

The roof grabs me tightly until I can die,
My age has two scores, but it’s not even nine.

It's cool up. it's is ever blossoming spring.
My mom is on balcony stands and waiting...

Begoyim Xolbekova tarjimasi

Tarjima tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, o'zbek va ingliz tillaridagi tarjimalarda ham mazmun, emotsiyonal xolat, go'zal musiqiy ohang to'laligicha saqlangan. She'ning strukturasida enjambment mavjud bo'lib, bu tarjimada ham huddi asliyatdagidek shoirning bolalik xotiralarini, voqealar davomiyligini mohirona aks ettirishga xizmat qilgan. Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Faynberg she'rclarining aksariyat tarjimalarida tarjimonning qalb harorati, mehr muhabbatи ufurib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Xolbekova "Ishq degani bir qarashda tuyularoson..." A.Faynbergdan tarjimalar kitobi -"Ijod nashr" 2021.
2. www.ma'lumot.ru
3. Xolbekova B.She'riy tarjima mezoni. Jaxon Adabiyoti jurnali 2009, Noyabr